

2026-yil 14-may

“Milliy sanoat zanjiri” ko‘rgazmasi sanoat kooperatsiyasi uchun yangi imkoniyatlar maydoniga aylandi




Toshkent viloyati Ohangaron shahrida “Milliy sanoat zanjiri” ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tmoqda. Sanoat kooperatsiyasi va davlat xaridlari agentligi, Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi hamda qator tashkilotlar hamkorligida tashkil etilgan tadbirda “O‘zkimyosanoat” AJ tarmoq korxonalari ham faol ishtirok etmoqda.



Mazkur tadbir sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, mahalliyashtirish darajasini oshirish, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar va yirik sanoat korxonalari o'rtasida amaliy hamkorlikni kengaytirishni maqsad qilgan.



Ko'rgazma doirasida tog'-kon sanoati va metallurgiya yo'nalishidagi yuqori texnologik mahsulotlar, sanoat startaplari, ilmiy ishlanmalar hamda istiqbolli loyihalar namoyish etilmoqda. Shuningdek, mahalliy kontentni kengaytirish, "shatakka olish" tizimi orqali sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, kafolatli xarid shartnomalari va yangi hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish imkoniyatlari ham taqdim etilmoqda. **Tadbir davomida kimyo sanoati korxonalarini tomonidan import qilinayotgan mahsulotlar va ularni mahalliyashtirish imkoniyatlari yuzasidan ma'lumotlar taqdim etildi.**



Ko'rgazmada B2B va B2G uchrashuvlari tashkil etilib, tadbirkorlar, yirik sanoat korxonalari, tijorat banklari hamda davlat tashkilotlari o'rtasida muzokaralar olib borildi.







source:

"O'zkiyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/milliy-sanoat-zanjiri-ko-rgazmasi-sanoat-kooperatsiyasi-uchu>